



AHOLI O'SISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

Xusenov Shahzod Fazlitdin o'g'li
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning demografik jarayonlari va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladi. Aholi sonining o'sishi, uy-joy ta'minoti va kommunal xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan hukumat islohotlari, jumladan, "Yashil makon" loyihasi doirasida rejalashtirilgan 400,000 yangi uy-joy qurilishi ko'rib chiqiladi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadlari ham muhokama qilinadi.

Maqola, aholi soni va tarkibining iqtisodiy ko'rsatkichlarga, davlat budjeti va tashqi investitsiyalarga ta'sirini yoritib, hukumat chora-tadbirlarining ahamiyatini ta'kidlaydi va kelajakdagi barqaror iqtisodiy o'sish uchun zaruriy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, iqtisodiy rivojlanish, aholi soni, uy-joy ta'minoti, kommunal xizmatlar, "Yashil makon" loyihasi, oziq-ovqat xavfsizligi, hukumat islohotlari, barqaror rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma, statistik ko'rsatkichlar.

Kirish

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2026-yilga borib O'zbekiston aholisi soni 38 mln dan oshishi kutilayotganini ma'lum qildi. Prezident bunday demografik o'sish mamlakat uchun ham imkoniyat, ham juda katta mas'uliyat ekanligini ta'kidlab o'tdi. 2021-yilgi yig'ilishda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Aholimizning qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi va har yili mehnat bozoriga kamida 600 ming yoshlar kirib kelmoqda. Bunday demografik o'sish biz uchun ham imkoniyat, ham juda katta mas'uliyat degani", — deb ta'kidlab o'tdi.

2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda doimiy aholi soni 36,799,800 kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 18,525,000 kishini, ayollar soni 18,274,800 kishini, shahar aholisi soni 18,768,500 kishini, qishloq aholisi soni 18,031,300 kishini tashkil etdi. Prezidentimizning 2017-yil 6-maydagi PQ-2690-sonli qaroriga muvofiq joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari va iqtisodiy kompleksga kiruvchi hududiy organlar rahbarlarining, ularni moddiy rag'batlantirish yoki ularga nisbatan intizomiy chora qo'llash bo'yicha tegishli tizimni joriy etgan holda, aholi bandligining o'sishi va uni ish bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi va samaradorligi uchun mahalliy ijro hokimiyati organlari va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati oshirildi.

Aholi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, har bir davlatning rivojlanish strategiyasida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida, so'nggi yillarda aholi sonining o'sishi iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qilayotgan bir qancha omillarni keltirib chiqarmoqda. 2020 yil boshida 8,7 million oila ro'yxatga olingan




bo'lib, bu davrda uy-joylar soni 6,3 milliondan ortiqni tashkil etdi. Ushbu raqamlar, bir oilaga to'g'ri keladigan uy-joylar nisbati 0,72 ga pasayishini ko'rsatmoqda, bu esa uy-joy qurilishi sur'atining aholi o'sishi bilan mos kelmasligini ta'kidlaydi.

Shaharlar va qishloq joylaridagi uy-joy ta'minoti, hududiy infratuzilma va kommunal xizmatlar aholining farovonligi uchun muhimdir. Hukumat tomonidan "Yashil makon" kabi loyihalar orqali aholi uy-joyini ta'minlash va ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2021 yil 2 noyabrda e'lon qilingan dasturlar doirasida, kelgusi besh yil davomida 80 mingdan ortiq xonadon qurilishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Demografik jarayonlar nafaqat uy-joy ta'minotiga, balki oziq-ovqat xavfsizligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholining ortib borayotgan talabi, birlamchi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ichki bozorda barqaror narx-navo saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni talab qiladi. Demografik vaziyat, iqtisodiy o'sish va infratuzilma bilan birgalikda, mamlakatning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu maqola O'zbekistonning demografik o'sishi va iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga bag'ishlanadi, bu orqali aholi o'sishining iqtisodiy o'sishga ta'siri keng ko'lamda yoritiladi.

1-rasm

O'zbekiston Respublikasi aholisi bilan bog'liq asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024-yil yanvar-iyun holati





Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

O'zbekiston demografik ko'rsatkichlari mamlakatning iqtisodiy o'sishiga qulay sharoit yaratmoqda. Yosh va ishga layoqatli aholi ko'pligi iqtisodiy rivojlanish uchun katta potensialga ega. Shu bilan birga, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar rivojlanishini ta'minlash orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga erishish mumkin. Buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, bandlik, va ijtimoiy himoya sohaslariga qaratilgan strategik investitsiyalar talab etiladi.

Aholi sonining ortishi (37,134,2 ming kishi) bozor hajmini kengaytiradi. Bu ko'plab sohaslar, jumladan iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun talabni oshiradi. Aholi ko'paygani sababli uy-joy qurilishi, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda investitsiyalar oshishi kutiladi. Bu sohalarga investitsiyalar esa bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'tarish orqali iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

Shahar aholisi 51% ni tashkil qilmoqda. Shaharlar iqtisodiy markazlar hisoblanadi va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan bo'ladi. Shahar aholisining ko'pligi iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohaslariga ijobiy ta'sir qiladi.

Qishloq aholisi (49%) esa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bu esa O'zbekiston qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali ushbu sektor samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotga qo'shimcha hissani ta'minlash mumkin.

2024-yilda tug'ilishlar soni 419,9 ming kishini tashkil etmoqda. Tug'ilish darajasining yuqoriligi yosh aholi salmog'ining o'sishini ta'minlaydi, bu esa kelajakda mehnat resurslari uchun qulay sharoit yaratadi.

Yosh aholi ko'pligi (o'rta yoshli kadrlar bozoriga kirib kelishi) kelajakda iqtisodiyotning turli sohaslariga yangi kadrlarni kiritadi, bu esa o'z navbatida innovatsion o'sish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Biroq, yosh aholi sonining ortishi ta'lim va bandlikka qo'yiladigan talablarni ham oshiradi.

Nikohlar sonining (97,4 ming birlik) o'sishi yangi oilalar shakllanishiga olib keladi, bu esa uy-joy bozoriga bo'lgan talabni oshiradi. Uy-joy qurilishi iqtisodiyotda qurilish va moliyaviy xizmatlar sektorlariga qo'shimcha o'sish keltiradi. Ajralishlar sonining (22,5 ming birlik) ko'pligi ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin, chunki ajralishlar ko'pincha ayollar va bolalar uchun qo'shimcha ijtimoiy xizmatlar talabini oshiradi.

O'lim darajasi 81,4 ming kishi. Bu nisbatan past ko'rsatkich bo'lib, aholining umumiy sog'lig'ining yaxshi ekanligini ko'rsatadi. Sog'lom mehnat resurslari iqtisodiy faoliyatni samarali olib borishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish




uchun sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga qaratilgan dasturlarni davom ettirish muhim, chunki bu aholining umr davomiyligini oshiradi va mehnat resurslarining barqarorligini ta'minlaydi.

Grafikdagi aholi o'sish sur'ati (2024-yilda 102,1%) mamlakatda umumiy demografik o'sishni ko'rsatadi. Aholi o'sishi ishchi kuchi resurslarini ko'paytirish bilan birga, ichki bozor talabi oshishiga xizmat qiladi. Bu iqtisodiy o'sish uchun rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Aholi o'sishi davom etishi natijasida infratuzilma, energetika, transport va boshqa sohalarda investitsiya hajmi oshirilishi kerak bo'ladi. Bu esa iqtisodiyotda turli sohalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

2-rasm

**O'zbekiston aholisining zichligi, migratsiya holati,
va chet elga chiqish va kelish**



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston viloyatlaridagi aholi zichligi xaritada ko'rsatilgan. Eng ko'p aholi zichligi Toshkent shahrida (6644,1 kishi/kv.km)



va Toshkent viloyatida (203,1 kishi/kv.km) bo'lsa, eng kam zichlik Qoraqalpog'iston Respublikasida (19,1 kishi/kv.km) kuzatilgan.

Toshkent shahar va Toshkent viloyati kabi aholi zich joylashgan hududlarda yuqori iqtisodiy faollik kuzatiladi. Bu hududlarda ko'proq mehnat resurslari mavjud bo'lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kuchining ko'pligi iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Shuningdek, aholi zichligi yuqori bo'lgan hududlarda talab yuqori bo'lib, bu biznes rivojlanishi uchun imkoniyatlarni oshiradi.

Kam aholiga ega hududlarda, masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa chekka viloyatlarda iqtisodiy faollik nisbatan pastroq bo'lishi mumkin. Bu hududlarda mehnat resurslari kamligi va investitsiyalarni jalb qilish qiyinligi iqtisodiy o'sishni cheklaydi.

Ko'chib kelganlar: 116,6 ming kishi O'zbekistonga kelgan bo'lib, ular orasida ayollar soni erkaklarga qaraganda yuqori. Bu kelgan aholi o'zlari bilan yangi mehnat resurslarini olib kelishi va mahalliy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin. Shu bilan birga, chet eldan qaytgan fuqarolar O'zbekistonning iqtisodiyoti uchun yangi bilim va tajriba olib kelishlari mumkin.

Ketganlar: 120,6 ming kishi chet elga ketgan, bu O'zbekiston iqtisodiyoti uchun salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ayniqsa, Qozog'iston va Rossiyaga ko'chib ketayotgan aholi ko'pincha iqtisodiy imkoniyatlar uchun ketadi, bu esa mahalliy iqtisodiyot uchun mehnat kuchi va iste'molchilarning yo'qolishiga olib keladi. Shu bilan birga, bu migrantlarning yuboradigan pul o'tkazmalari O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shimcha daromad keltiradi va mahalliy iste'molni qo'llab-quvvatlaydi.

Chet eldan qaytganlar: Ko'p kelganlar Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlardan bo'lib, ular O'zbekiston iqtisodiyotiga qaytib kelish orqali iqtisodiy o'sishga qo'shilgan hissa sifatida qaralishi mumkin. Bu aholi o'zi bilan tajriba va yangi mahorat olib kelishi mumkin.

Chet elga ketganlar: O'zbekiston fuqarolarining ko'pchiligi doimiy yashash uchun Qozog'iston va Rossiyaga ketmoqda, bu esa mehnat kuchining oqishi va "miyalar oqishi"ni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, bu migrantlar chet elda ishlash orqali daromad orttirib, O'zbekistonga pul o'tkazmalarini yuboradi. Ushbu o'tkazmalar milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin uzoq muddatda yuqori malakali kadrlarning yo'qolishi iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Kelgan va ketganlar orasida ayollar soni erkaklarga qaraganda yuqori ekanligi iqtisodiyot uchun alohida ahamiyatga ega. Ayollarning iqtisodiy faolligi oshgan sayin, ularning mehnat bozoridagi ishtiroki ham ortadi. Shuningdek, ayollar chet



eldan qaytib kelganlar orasida yuqori ekanligi ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikni oshirishi mumkin.

Bu migratsiya tendensiyalari O'zbekiston iqtisodiyotiga turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining ko'chib ketishi qisqa muddatda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiruvchi omil bo'lsa-da, uzoq muddatda malakali ishchi kuchining yo'qolishi va demografik muvozanatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, chet eldan pul o'tkazmalari iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur tendensiyalarni tartibga solish uchun O'zbekiston hukumati mehnat resurslarini samarali boshqarish va qaytib kelgan migrantlarning iqtisodiyotga ijobiy integratsiyasini ta'minlash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aholi o'sishining iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar keng ko'lamlil ilmiy maqolalar, monografiyalar, amaliy tadqiqotlar va statistik hisobotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu adabiyotlar, demografik o'zgarishlarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri, aholi soni va tarkibi bilan bog'liq ko'rsatkichlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Demografik o'sishning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotchilar o'z fikrlarini bildirgan. M. Kuznets (1960) o'zining "Demography and Economic Growth" asarida, demografik o'sish va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil etadi [1]. U aholi o'sishi, iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi va iste'mol bozorini yaratishini ta'kidlaydi. Buning natijasida, aholi o'sishi o'z navbatida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, chunki ko'proq iste'molchilar va ishchi kuchi mavjud bo'ladi.

Aholi o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. O. P. Ramankulov (2018) "Oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy o'sish" mavzusida olib borgan tadqiqotida, aholi o'sishi bilan birga oziq-ovqat talabining oshishi va bu holatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sirini tahlil etadi [2]. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ortishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini dolzarb qiladi.

Aholi sonining ortishi, uy-joy ta'minoti va infratuzilmalar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. J. Smith (2021) "Urbanization and Housing Supply" asarida shaharlarning o'sishi va ularning uy-joy bilan ta'minlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi [3]. U aholi o'sishi urbanizatsiyani kuchaytirishi va bu esa uy-joy qurilishi ehtiyojini oshirishini ko'rsatadi. Infratuzilma, shuningdek, aholi turmush



darajasini yaxshilash uchun zarurdir, chunki sifatli uy-joy ta'minoti, transport va kommunal xizmatlar aholi farovonligiga bevosita ta'sir qiladi.

Aholi o'sishining iqtisodiy siyosatga ta'siri ham muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. A. I. Berzin (2020) "Demographic Change and Economic Policy" asarida aholi o'sishi va iqtisodiy siyosat o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi [4]. U iqtisodiy rivojlanish uchun demografik o'zgarishlarga mos keladigan siyosatni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Bu demografik jarayonlar, davlat budjetini shakllantirish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Aholi o'sishining global iqtisodiy jarayonlarga ta'siri ham adabiyotlarda muhim o'rin tutadi. R. N. Pradhan (2022) "Global Demographic Trends and Their Economic Implications" asarida global aholi o'sishining iqtisodiy tizimlarga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi [5]. U aholi o'sishining iqlim o'zgarishi, iqtisodiy inqirozlar va boshqa global muammolar bilan bog'liq bo'lishini ko'rsatadi, bu esa aholi o'sishini nazorat qilish va rejalashtirishda dolzarb muammolarga aylanishi mumkin.

Ushbu tadqiqotlar, aholi o'sishining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va ta'sirini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Demografik jarayonlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, oziq-ovqat xavfsizligi, uy-joy ta'minoti va infratuzilma o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish, mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotlarda aholi o'sishi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi murakkab munosabatlar, ularning o'zaro ta'siri va bu jarayonlarni boshqarish zarurati ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda aholi o'sishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish uchun bir qator metodologik yondashuvlar va usullar qo'llaniladi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar, anketalar, ekspert intervyulari va sifatli tahlil usullari orqali kompleks yondashuv amalga oshiriladi.

- Aholi o'sishiga doir rasmiy statistik ma'lumotlar, demografik ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sish haqidagi hisobotlar va davlat statistikasi organnalardan olinadi. Bu ma'lumotlar aholi soni, tarkibi, ish bilan ta'minlash darajasi, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari kabi parametrlarni o'z ichiga oladi.

- Aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma orqali aholi o'sishi va iqtisodiy farovonlik haqida ma'lumotlar to'planadi. Anketalar, aholi turmush darajasi, iste'mol odatlari, oziq-ovqat ta'minoti va uy-joy sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

- Iqtisodiy va demografik sohalarda tajribali mutaxassislar bilan intervyular o'tkazilib, aholi o'sishining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri, muammolari va istiqbollari



haqida fikrlar olinadi. Bu usul, muammolarni chuqurroq tushunish va aniq tavsiyalar ishlab chiqish uchun foydalidir.

- Aholi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganish uchun sifatli tahlil usullari qo'llaniladi. Ushbu usul, aholi o'sishining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini, demografik jarayonlarni va ularning kontekstual muammolarini o'rganish imkonini beradi.

- Aholi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun statistik usullar, jumladan, korrelyatsiya va regressiya tahlillari qo'llaniladi. Bu usullar yordamida ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlar va ta'sir darajasi aniqlanadi.

- Mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda aholi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi va inkor etuvchi dalillar aniqlanadi.

- Aholi o'sishining demografik ko'rsatkichlari (tug'ilish, o'lim, migratsiya) va ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tahlil qilinadi.

- Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari, jumladan, YaIM, ish bilan ta'minlash darajasi, investitsiyalar va boshqa iqtisodiy parametrlar o'rganiladi.

- Davlat va mahalliy hukumatlarning demografik o'sish va iqtisodiy rivojlanishdagi roli va tadbirlari tahlil qilinadi.

Ushbu metodologiya orqali aholi o'sishining iqtisodiy o'sishga ta'siri yanada chuqurroq o'rganiladi va natijalar asosida aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari yaratiladi.

Tahlil va Natijalar

O'zbekiston Respublikasining demografik o'sishi va iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'lanishni tahlil qilishda so'nggi yillik ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi. 2022-yil va 2024-yilning may holati bo'yicha aholi soni va jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichlari quyida keltirilgan.

1-jadval

Aholi soni va jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkich

Yil	Aholi soni (mln)	Jon boshiga YaIM o'sishi (%)
2022	35,8	103,5
2023	36,4	103,8
2024 (may holayi)	37	107,3



1-jadval. 2022-yil va 2024-yilning may holati bo'yicha aholi soni va jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichlari

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi sonining o'sishi 2022-yildan 2024-yilgacha har yili davom etgan. 2022-yilda 35,8 milliondan 2024-yilga kelib 37 millionga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayon, mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jon boshiga YaIM o'sishi har yili ortib bormoqda, 2022-yilda 103,5% dan 2024-yilga kelib 107,3% ga yetishi kutilmoqda. Bu, iqtisodiy faoliyatning kengayishini va resurslarni samarali ishlatishni ko'rsatadi. Shuningdek, har yili mehnat bozoriga kirayotgan 600 ming yoshlar aholisining bandligini ta'minlash maqsadida yangi ish o'rinlarini yaratish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Demografik o'sish O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga muhim turtki bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, aholining yoshi, tuzilishi va soni mamlakat iqtisodiy siyosatida belgilovchi omil hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida demografik jarayonlar e'tiborga olinishi lozim.

O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida, aholi o'sishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy muammolarni hal etish va yashash sharoitlarini yaxshilashga ham ta'sir qiladi. Shu bois, aholi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasida mavjud aloqalarni yanada kuchaytirish uchun samarali siyosat ishlab chiqish zarur.

Aholi sonining ortishi ijtimoiy masalalarni ham yuzaga keltiradi. 2046-yilga kelib, mehnatga layoqatli aholi sonining 27 millionga yetishi kutilmoqda, bu esa ishsizlik darajasini oshirish xavfini tug'diradi. Hozirda yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 15,2% ni tashkil etadi, bu esa mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga tahdid soladi.

Shu bilan birga, aholi o'sishi ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarga ham ta'sir qiladi. Aholining sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talabining oshishi, mamlakatning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'zbekistonning aholi o'sishi va iqtisodiy o'sishi o'rtasidagi bog'lanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi sonining o'sishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Mamlakatda demografik jarayonlar va iqtisodiy siyosatlar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud bo'lib, buni samarali boshqarish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur. Aholi o'sishi va iqtisodiy



rivojlanishni barqaror qilish uchun malakali kadrlar tayyorlash va ish o'rinlarini yaratish siyosatining yo'lga qo'yilishi lozim.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida aholi o'sishi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'lanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, demografik o'sish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir qiladi. So'nggi yillarda aholining soni, tug'ilish darajasi, va mehnat bozoriga kirayotgan yoshlar soni ortishi, iqtisodiy o'sishga turtki bo'lgan omillardir. 2022-2024 yillar o'rtasida aholi sonining o'sishi va jon boshiga YaIM ko'rsatkichlarining yillik ortishi mamlakat iqtisodiy faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi.

- Demografik o'sish: O'zbekiston aholisi 2024-yilga kelib 37 millionga yetishi kutilmoqda, bu esa yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy resurslarni samarali ishlatishni talab qiladi.
- Iqtisodiy o'sish: Jon boshiga YaIM o'sishi 107,3% ga yetishi kutilmoqda, bu esa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ijobiy ko'rsatkichdir.
 - Ijtimoiy muammolar: Aholi o'sishi yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasini oshirish xavfini tug'diradi. 2046-yilga kelib, mehnatga layoqatli aholi sonining oshishi, ishsizlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Quyida takliflar aholi o'sishi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, mamlakatning barqaror va mustaqil rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bularning barchasi O'zbekistonning kelajagini yanada barqaror qilish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar hisoblanadi.

Mahalliy ijro hokimiyatlari va iqtisodiy komplekslar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Yoshlar uchun ta'lim va kasb-hunar kurslarini kengaytirish, shu bilan birga, mehnat bozorida talablarni hisobga olgan holda malaka oshirish dasturlarini tashkil etish lozim.

Aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda sifatli xizmatlarni taqdim etish uchun davlat tomonidan qo'shimcha mablag'lar ajratilishi tavsiya etiladi.

Demografik jarayonlarni yanada samarali boshqarish maqsadida, aholi o'sishini hisobga olgan holda strategik siyosiy qarorlar qabul qilish muhimdir.

O'zbekistonning demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini muntazam ravishda tahlil qilib borish va statistik ma'lumotlar asosida prognozlar ishlab chiqish orqali aniq va samarali strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuznets, M. (1960). *Demography and economic growth*. New York: Columbia University Press.
2. Ramankulov, O. P. (2018). *Oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy o'sish*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Smith, J. (2021). *Urbanization and Housing Supply*. New York: Urban Studies Press.
4. Berzin, A. I. (2020). *Demographic Change and Economic Policy*. London: Economic Policy Press.

